



SHIFOKOR

SAMARQAND DAVLAT
TIBBIYOT UNIVERSITETI
NASHRI

SO'ZI

GAZETA 1938 YILDAN "MEDITSINA FANI UCHUN" NOMI BILAN CHIQA BOSHLAGAN

SHAVKAT MIRZIYOEYEV
O'ZBEKISTON XALQINI
MUSTAQILLIK KUNI
BILAN TABRIKLADI

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mustaqilligining 32-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. O'z tabrik so'zida prezident o'tgan 32-yilga nazar solib, bo'lib o'tgan qiyinchiliklar va erishilgan yutuqlarni aytib o'tdi.

«O'ttiz ikki yil avval tug'ilgan go'dak bugun o'zining mustaqil fikri, dunyoqarashi, orzu-istaklari va maqsadlariga ega shaxs sifatida voyaga yetdi. Xuddi shu singari, bugungi O'zbekiston ham, o'tgan davrda turli sinovlarda toblanib, tajriba orttirib, o'zining aniq maqsadi va yo'li, pozitsiyasiga ega bo'lgan katta davlat sifatida shakllandi», - dedi davlat rahbari.

Shuningdek, prezident o'z tabrik so'zida o'qituvchilar, dehqonlar, harbiylar, tadbirkor va hatto xorijda yashayotgan vatandoshlarni ham aytib o'tdi.

«Mana shu shukuhli damlarda har qanday sharoitda ham o'z kasbiga sodiq qolib, yosh avlodimizga ilm-fan asoslarini o'rgatib kelayotgan hurmatli muallim va murabbiylarni, xalq salomatligi yo'lida o'zini ayamasdan xizmat qilayotgan jonkuyar shifokorlarni, el-yurt dasturxonini yanada to'kin qilish uchun dalalarimizda fidokorona mehnat qilayotgan mirishkor dehqon va fermerlarimizni, ona yurtimiz qalqlarini bo'lgan jasur harbiylarimizni, iqtisodiyotimiz rivoji, xalqimiz farovonligini oshirish yo'lida jonbozlik ko'rsatayotgan tadbirkorlarimizni, o'zining dastlabki yutuqlari bilan barchamizni xursand qilayotgan azmu shijoatli yoshlarimizni,

qalb to'la mehri, ulug' fazilatlar bilan xonadonlarimiz ustuni bo'lib kelayotgan hurmatli opa-singillarimizni, har bir ishda duogo'y bo'lib, bizga Yaratgandan kuch va madad tilab turgan muhtaram otaxon va onaxonlarimizni, dunyoning qaysi o'lkasida bo'lsa ham, O'zbekiston sog'inchi bilan yashayotgan aziz vatandoshlarimizni, bir so'z bilan aytganda, 36 millionlik butun xalqimizni bugungi ulug' bayram bilan chin qalbidan samimiy tabriklayman», - dedi Shavkat Mirziyoyev.

Shavkat Mirziyoyev shuningdek, tarixiga nazar solib, qatag'on yillarida ayblangan 856 nafar o'zbekistonliklar oqlanganini, paxta siyosati oqibatlarini va boshqa muhim voqealarni ham ayti bo'tdi.

Prezident qo'shni mamlakatlar bilan munosabatlarni yangi darajaga ko'tarilganini alohida qayd etdi.

«Prezident sifatida dastlabki ishlarimdan biri qo'shni mamlakatlar bilan do'stona munosabatlarni o'rnatish bo'ldi. Yillar davomida yechimini kutayotgan muammolar hal etildi. Buning natijasida Markaziy Osiyo davlatlari bilan barcha sohalaridagi aloqalarimiz yangi bosqichga chiqdi», - dedi Shavkat Mirziyoyev.

Shuningdek, respublika so'nggi yillarda erishgan iqtisodiy yutuqlar ham tilga olindi.

«So'nggi 6-yilda yurtimizda yalpi ichki mahsulot hajmi 1,5 martadan ziyod, tadbirkorlik subyektlari soni 2 karra ko'paygani, sanoatdagi o'sish 40 foizdan oshgani buni yaqqol tasdiqlaydi. Qisqa muddatda kambag'allikni 2 barobardan ziyod qisqartirishga erishdik», - dedi Shavkat Mirziyoyev.

Ta'lim sohasida erishilgan yutuqlar ham alohida aytib o'tildi.

«2022 yili mamlakatimizda 72 ta yangi maktab qurildi, 279 tasi kapital ta'mirdan chiqarildi, 514 ta maktab esa rekonstruksiya qilindi. Maktablar uchun 30 mingdan ortiq kompyuter xarid qilind. Yangi o'quv yilidan respublikamiz maktablarida xorijdan maxsus taklif etilgan 500 nafar ingliz tili mutaxassislari bolalarimizga dars beradi», - dedi prezident.

Shavkat Mirziyoyev, shuningdek, xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan choralarni, ularning yaxshi ta'lim olishi, kasb o'rganishiga ham so'nggi yillarda katta e'tibor qaratilayotganini aytib o'tdi.

«Oldimizda turgan yana bir muhim vazifa – jamiyat

hayotining barcha sohalarida ayollar uchun teng imkoniyatlar yaratishdir. Hurmatli xotin-qizlarimizning jamiyatdagi o'rni va nufuzini oshirish, ularning huquq va manfaatlarini, kasb sohasi bo'yicha o'sishini ta'minlash borasida o'tgan davrda ko'p ishlarni amalga oshirdik. Shu bilan birga, bu yo'nalishda qiladigan ishlarimiz ham oz emas», - dedi prezident.

«Fursatdan foydalanib, Yangi O'zbekistonni barpo etishda fidokorona mehnat qilib kelayotgan barcha yurtidoshlarimizga, ona xalqimiga chin qalbidan minnatdorlik bildiraman.

Siz, azizlarni, kattayu kichik barcha vatandoshlarimni bugungi ulug' ayyom – O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining o'ttiz ikki yilligi bilan yana bir bor chin qalbidan tabriklayman.

Barchangizga sihat-salamatlik, xonadonlaringizga baxtu saodat, fayzu baraka tilayman.

Barcha yutuq va g'alabalarimizning ijodkori va bunyodkori bo'lgan xalqimiz hamisha omon bo'lsin! Go'zal yurtimizda tinchlik va osoyishtalik bardavom bo'lsin!

Jonajon Vatanimizga ko'z tegmasin!», - deb tabrik so'zlarini yakunladi prezident.

YAPONIYANING BIR QATOR OLIYGOHLARI VA KOMPANIYALARI BILAN HAMKORLIK KO'PRIKLARI O'RNATILDI

Samarqand davlat tibbiyot universiteti delegatsiyasining Yaponiyaga tashrifi davomida ushbu mamlakatning bir qator oliy ta'lim muassasalari va korxonalari bilan hamkorlik aloqalari o'rnatildi.



Xususan, xalq tabobati yo'nalishida hamkorlikni amalga oshirish maqsadida dorivor o'simliklarni tibbiyot sohalariga uchun qayta ishlab chiqarishga ixtisoslangan Tokio shahridagi "Tsumura Co" kompaniyasi prezidenti Terukazu Kato bilan muzokaralar olib borildi. Uchrashuv davomida SamDTU va "Tsumura Co" kompaniyasi o'rtasida ilmiy aloqa o'rnatishga kelishib olindi.

Shuningdek, rektor J.Rizayev

boshchiligidagi delegatsiya Nagoya va Tokai mintaqasi tibbiyot markazi rahbari professor Matsuo Seiichi va Nagoya Universiteti "Yosh liderlar dasturi" asoschisi professor Ito Katsukilar bilan uchrashib, oliygohtarlar o'rtasida ilmiy-amaliy faoliyat bo'yicha ikki tomonlama muzokaralar olib bordi. Mazkur kelishuvlarga asosan 2023-2024 o'quv yilida bir qator loyihalar hamkorlikda amalga oshiriladi.

Yaponiyaning oliy ta'lim muassasalari va korxonalari bilan o'rnatilgan hamkorlik aloqalari tibbiy ta'lim milliy tizimi va amaliy sog'liqni saqlash sohalarini yanada rivojlantirishga poydevor yaratadi.

UNIVERSITETDA YANGI O'QUV YILI BOSHLANDI

Joriy yilning 4-sentabridan barcha ta'lim muassasalarida, shu jumladan Samarqand davlat tibbiyot universitetida ham yangi 2023-2024-o'quv yili boshlandi.

Erta tongdan SamDTU yangi o'quv binosida tantanali yig'ilish bo'lib o'tdi. Unda universitet rahbariyati, ma'muriyati hamda talabalar ishtirok etdilar. Tadbirida talabalar yangi o'quv yili bilan tabriklanib, ularning kelgusi o'qishlarida omadlar tilandi.

Shuningdek, 1-bosqich talabalari universitetning o'quv va laboratoriya xonalari hamda ularda yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishdilar. Birinchi bosqich talabalari universitet tarixi muzeyiga ham tashrif buyurib, oliygohtarlar tashkil topishi, rivojlanishi hamda uning qisqacha tarixi haqida ma'lumotlarga ega bo'ldilar.

Dastlabki darslar "Mustaqillik darsi" sifatida tashkil etilib, erk va mustaqilligimiz yo'lida jon fido qilgan ajdodlarimiz xotirasi yod etildi. Shuningdek, mustaqillikning ulug' ne'mat ekanligi, bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan ulkan islohotlar aynan mustaqilligimiz sharofati ekani ta'kidlandi.



BUTUNJAHON OZON QATLAMINI HIMOYA QILISH KUNIGA BAG'ISHLANGAN TADBIR BO'LIB O'TDI

16-sentabr — Butunjahon ozon qatlamini himoya qilish kuni munosabati bilan universitetda davra suhbatlari bo'lib o'tdi.

Tadbirda Samarqand viloyat Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi bo'lim boshlig'i T.Hoshimov, SamDTU Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori E.Tangirov, professor-o'qituvchilar va talabalar ishtirok etdi.

T.Hoshimov ishtirokchilarga bugungi kundagi murakkab ekologik vaziyat, tabiatni muhofaza qilish muammolari hamda bu borada amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot berib o'tdi. Bugungi kunda ozon qatlamining yemirilishi natijasida oxirgi 50 yil ichida bir qancha kasalliklar, jumladan teri saratoni, ko'z kataraktasi, turli dermatitlar bilan kasallanish holatlari ortgani hamda ozon qatlamini muhofaza qilish ushbu kasalliklarni oldini olishda muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlandi.

Shuningdek, tadbir davomida ayni damda butunjahon ekologik muammosiga aylanib ulgurgan Orol dengizining holati, uni muhofaza qilish dolzarb masala ekanligi alohida ta'kidlandi. Davra suhbatida talabalar o'zlarini qiziqtirgan bir qator savollarga atroficha javob olish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

"O'LIM SABABLARI VA KO'RSATKICHLARI STATISTIKASI" MAVZUSIDAGI XALQARO SEMINAR

19-21 sentabr kunlari Samarqand shahrida Germaniyaning Kox institutining "Catinca" loyihasi hamda Toshkent vrachlar malakasini oshirish institutining jamoati

salomatligi va sog'liqni saqlashni boshqaruvi kafedrasini Samarqand davlat tibbiyot universiteti hamkorligida "O'lim sabablari va o'lim ko'rsatkichlari statistikasi" mavzusida xalqaro seminar bo'lib o'tdi.

Seminarda 10 ga yaqin davlatlardan, shu jumladan Armaniston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Gruziya, Tojikiston, Germaniya va Mongoliyadan 30ga yaqin professor-o'qituvchilar hamda soha mutaxassislari qatnashdilar.

Seminarda rektor Jasur Rizayev boshchiligidagi universitet professor-o'qituvchilari jamoasi faol qatnashdi. Uch kun davom etgan seminar davomida turli davlatlarda kasalliklarning o'lim holatlari, sabablari omillarining kelib chiqishi borasidagi statistik ko'rsatkichlari tahlil qilinib, qanday qilib inson umrini uzaytirish va o'lim holatlarini kamaytirish borasida muhokamalar bo'lib o'tdi.





Xitoyning farmatsevtik korxonasi bilan hamkorlik masalalari muhokama qilindi

Universitetga Xitoyning "XinDeyuan Bioengineering" korxonasi vakillari tashrif buyurdi. Korxona Xitoy Xalq Respublikasi Shinjon-Uyg'ur muxtor rayonida joylashgan bo'lib, qon preparatlari ishlab chiqaruvchi farmasevtik korxona hisoblanadi.

Korxonaning kadrlar bo'lim boshlig'i Song Chenjia tashrifdan maqsad kelgusida yurtimizda "XinDeyuan Bioengineering" korxonasi tomonidan ochiladigan yangi korxonaga malakali tibbiy xodimlar hamda farmatsevtlarni tayyorlab berish uchun SamDTU bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishdan iborat ekanligini ta'kidladi. Uchrashuv davomida mehmonlar SamDTU o'quv tizimi, ta'lim yo'nalishlari, xususan, farmatsevtika yo'nalishi, shuningdek, universitetning kadrlar tayyorlash dasturi bilan yaqindan tanishtirildi.

Muhokamalar davomida "XinDeyuan Bioengineering" tomonidan ochiladigan yangi korxona ko'plab ish o'rinlarini yaratishi ta'kidlandi. Kelgusida SamDTUning farmatsevtika, oliy hamshiralik yo'nalishlari bitiruvchilarini, bundan tashqari texnikumlarni tamomlagan talabalarni ushbu korxonaga ishga joylashtirish masalalari ko'rib chiqildi. Xitoy korxonasi bilan keng qamrovli hamkorlikni yo'lga qo'yishga kelishildi.

SamDTU neyroxirurgiylari Osiyo neyroxirurgiya Kongressida ishtirok etdilar

15-17 sentabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Respublika ixtisoslashtirilgan neyroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, O'zbekiston neyroxirurgiylari Assotsiatsiyasi, Osiyo neyroxirurgiylari Kongressi va Xalqaro minimal invaziv neyroxirurgiya jamiyati tomonidan Toshkent shahrida Osiyo neyroxirurgiya Kongressi Markaziy Osiyo neyroxirurgiylarini "Buyuk Ipak Yo'li" anjumani va Minimal invaziv neyroxirurgiya jamiyatining 7 Kongressi o'tkazildi.



Tadbirda respublikamiz va 10 dan ortiq xorijiy davlatlaridan 300 dan ortiq ishtirokchilar qatnashdilar. Kongressda Samarqand davlat tibbiyot universiteti neyroxirurgiya kafedrasidan bir guruh professor-o'qituvchilar, klinik ordinatorlar va "Yosh neyroxirurglar" talabalar ilmiy jamiyati a'zolari ishtirok etdilar.

Kongress dasturi bo'yicha neyroanatomya, qon tomirlar neyroxirurgiyasi, neyroonkologiya, spinal neyroxirurgiya, bolalar neyroxirurgiyasi, "neyro-hamshira", "Yosh olimlar tanlovi" kabi yo'nalishlarda 150 dan ortiq ma'ruzalar qilindi. SamDTU neyroxirurgiya kafedrasini professori, t.f.d. A.Mamadaliyev kongressning plenar majlisi spinal neyroxirurgiya bo'yicha sho'ba yig'ilishida raislik qildilar. SamDTU neyroxirurgiya kafedrasini mudiri dos.M.Aliyev "Possibilities of modern diagnostic methods and results of surgical

treatment of Kimmerle anomaly" mavzusida ma'ruza qildi. Shuningdek, kongressning ilmiy ishlari to'plamida kafedra xodimlarini tezislari chop etildi.

Kongress doirasida "Endovaskulyar neyroxirurgiya va qon tomirlar anastomozlari hosil qilish", "Glioma, gipofiz o'smalari xirurgiyasi", "Bosh miya qon tomirlari ochiq xirurgiyasi" bo'yicha o'quv-amaliy ta'lim kurslari (workshop) o'tkazildi. Mazkur "Workshop" kurslarida SamDTU vakillari ham faol ishtirok etdilar.

O'tkazilgan anjuman sohani deyarli barcha yo'nalishlarda qilingan ilmiy ma'ruzalarni ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati, innovatsiyalarning turli-tumanligi, qatnashuvchilarning geografiyasi kengligi bilan ajralib turishi bois, Markaziy Osiyo neyroxirurgiyasining rivojlanishida navbatdagi tarixiy bosqich sifatida e'tirof etish mumkin.



Yosh tadqiqotchilar Education University of Hong Kongda ilmiy izlanishlar olib borishadi

2023-yil 28 avgust kuni universitetga Education University of Hong Kong Ijtimoiy tadqiqotlar kafedrasini professori Sing Kai Lo boshchiligidagi delegatsiya tashrif buyurdi.

Janob Sing Kai Lo mazkur universitet vitse-prezidenti xalqaro hamkorlik bo'yicha yordamchisi, Analytics/Assessment tadqiqot markazi direktori hamda Maxsus ta'lim ehtiyojlari va inkluziv ta'lim markazi direktori lavozimlarida ham faoliyat olib boradi.

Mehmonlar rektor Jasur Rizayev bilan uchrashib muzokaralar olib bordilar. Mazkur uchrashuvda SamDTU Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektori Zafar Aminov ham ishtirok etdi. Muzokoralarda SamDTUning ilmiy tadqiqot ishlarini olib borayotgan 6 nafar yosh o'qituvchilari sentabr oyida Education University of Hong Kongda o'z tadqiqotlarini olib borishlariga kelishildi.

Shuningdek, universitet professor-o'qituvchilari uchun professor Sing Kai Lo "Tadqiqot va nashr etish ko'nikmalarini rivojlantirish" mavzusida ma'ruza qildi. Unda ilmiy maqolani nufuzli jurnallarda chop qilish va Hirsh Indeksini oshirish masalalari keng yoritildi. Ishtirokchilar tomonidan berilgan barcha savollarga ma'ruzachi tomonidan batafsil javoblar qaytarildi.



SamDTU va Vitebsk davlat tibbiyot universiteti bilan hamkorlik poydevori yaratildi

Samarqand davlat tibbiyot universiteti delegatsiyasi birinchi Belarus-O'zbekiston biznes forumi doirasida, Vitebsk davlat tibbiyot universitetiga tashrif buyurdi.

2023-yilning 6-sentabr kuni Belarus Milliy kutubxonasida Belarus Respublikasi Milliy Assambleyasi Kengashi Raisi Natalya Kochanova va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Narbayaeva raisligida "Ayollar biznesda — Belarus va O'zbekiston ishbiarmonlik hamkorligini rivojlantirish salohiyati" mavzusidagi birinchi Belarus-O'zbekiston ayollar biznes forumi yalpi majlisi bo'lib o'tdi.

Forumning yalpi majlisi doirasida Vitebsk davlat tibbiyot universiteti rektori Aleksey Chukanov va rektor Jasur Rizayev o'zaro hamkorlik shartnomasini imzoladilar. Forumda Belarus tomoni bilan aloqa o'rnatish, hamkorlik istiqbollarini muhokama qilish va tajriba almashinish imkoniyatlariga poydevor yaratildi. VDMU rektori Aleksey Chukanov bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda qo'shma ta'lim dasturlarini yo'lga qo'yish va SamDTU bitiruvchilarini universitetning magistratura yo'nalishlari bo'yicha tayyorlash haqida kelishuvlarga erishildi. Shuningdek, delegatsiya a'zolari VDTU o'quv laboratoriyalari hamda o'quv jarayonining tashkil etilishi bilan ham tanishdilar.

Qozog'iston tibbiyot universitetlari bilan hamkorlik masalalari

7 avgust kuni universitetga Marat Ospanov nomidagi G'arbiy Qozog'iston tibbiyot universiteti rektori, professor Asset Kaliyev va rektor maslahatchisi Talgat Nurgojinlar tashrif buyurdi.

Delegatsiyani rektor Jasur Rizayev, xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor Zafar Aminovlar kutib olishdi. Uchrashuvda qo'shni mamlakat tibbiyot oliygohlari bilan hamkorlikni kengaytirish masalalari, shu jumladan Marat Ospanov nomidagi G'arbiy Qozog'iston tibbiyot universiteti va Samarqand davlat tibbiyot universitetlari o'rtasida tibbiyot sohasidagi yangiliklar, ilmiy va tibbiy innovatsiyalar, shuningdek, ta'lim xalqaro tajribalar bazasini shakllantirish, zamon talabiga mos mutaxassislar tayyorlashda hamkorlik qilish hamda ikki oliygoh o'rtasida akademik mobillikni yo'lga qo'yish doirasida ishlarni jadallashtirish kelishuviga erishildi.

Uchrashuv so'ngida mehmonlarga universitet ramzi tushirilgan esdalik sovg'alar tuhfa qilindi.



Oltoy davlat tibbiyot universiteti bilan qo'shma ta'lim orqali mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yildi

Samarqand davlat tibbiyot universiteti hozirgi vaqtda xorijiy tibbiyot ta'lim muassasalari bilan hamkorlik va do'stlik aloqalarini o'rnatib kelmoqda.



6-8-sentabr kunlari SamDTUga Oltoy davlat tibbiyot universiteti rektori Irina Sheremetyeva va xalqaro aloqalar va raqamli transformatsiya bo'yicha prorektor Aleksey Rezinkin tarkibidagi delegatsiya tashrifi amalga oshirildi.

Xorijiy hamkasblarimiz universitetning yangi o'quv binosi, o'quv va laboratoriya xonalari hamda axborot-resurs markazi bilan yaqindan tanishib chiqib, ta'lim tizimining tashkil etilishi va yaratilgan shart-sharoitlardan mamnun ekanliklarini bildirib o'tdilar.

Tashrif davomida Oltoy davlat tibbiyot universiteti va Samarqand davlat tibbiyot universiteti o'rtasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish va qo'shma ta'lim dasturini amalga oshirish masalalari muhokama qilindi. Shujumladan, stomatologiya yo'nalishi bo'yicha hamkorlikda 3+2 shaklida qo'shma ta'lim dasturini amalga oshirishga kelishildi.

Mazkur qo'shma ta'lim yo'nalishi bo'yicha qabul shu yilning oktabr oyidan boshlanishi rejalashtirilgan.

Ozərbayjon sog'liqni saqlash vaziri SamDTUga tashrif buyurdi

Joriy yilning 17-avgust kuni Ozərbayjon sog'liqni saqlash vaziri Temur Musayev Samarqand davlat tibbiyot universitetiga tashrif buyurdi. Mehmonlarni rektor Jasur Rizayev kutib oldi.

Tashrif davomida mehmonlar SamDTUning yangi binosi hamda unda yaratilgan shart-sharoitlar, o'quv va laboratoriya xonalari, ularning jihozlanishi va dars mashg'ulotlarining tashkil etilish tizimi bilan yaqindan tanishdilar. Shuningdek, mehmonlar universitet tarixi muzeyiga ham tashrif buyurib, universitet tarixi haqida ham ma'lumot olish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Shuningdek, SamDTU hamda Ozərbayjon tibbiyot oliygohlari bilan istiqbolli loyihalar muhokama qilindi. Tashrif so'ngida Jasur Rizayev mehmonlarga universitet ramzi tushirilgan esdalik sovg'alarini topshirdi.



25-avgust kuni universitetga Germaniyaning OPASCA tashkiloti delegatsiyasining tashrifi amalga oshirildi.

GERMANIYA UNIVERSITETLARI BILAN HAMKORLIKDA MUTAXASSIS CHIQARISHDA OPASCA TASHKILOTI KO'MAKLASHADI

OPASCA tibbiy xizmat sifatini yaxshilash, mutaxassislar salohiyatini oshirish va bemorlarning salomatligini yaxshilash maqsadida sog'liqni saqlash jarayonlarini raqamlashtiruvchi tashkilot.

Mehmonlarni rektor Jasur Rizayev qabul qildi. Tashrif davomida OPASCA – SamDTU – SamDCHTI memorandumini doirasida uch tomonlama shartnoma imzolandi. Kelishuvga

ko'ra, SamDTUning Jamoat salomatligi texnikumlari hamda OPASCA o'rtasida o'zaro akademik mobilik doirasida talabalarni o'qitish tizimi yo'lga qo'yiladi. Dastur 2+1 shaklida amalga oshirilib, "Hamshiralik ishi" yo'nalishida 2 yil SamDTU mutaxassislik bilan SamDCHTI'da nemis tili bo'yicha tahsil olgan talabalar Germaniyada 1 yil davomida tahsil olish imkoniyatiga ega bo'ladi.



"UTT INNOVATSIYA: TOVUSH VA FANNI BIRLASHTIRIB" XALQARO SEMINARI

16-sentabr kuni universitetda "UTT innovatsiya: tovush va fanni birlashtirib" xalqaro seminari bo'lib o'tdi.

Seminardan maqsad — ultratovush diagnostikasi, elastografiyasi sohalaridagi ilmiy yangiliklarni tahlil qilish, UTT innovatsiyalarini va tibbiyot sohasidagi yangi zamonaviy texnologiyalardan amaliyot shifokorlarini xabardor qilish bo'ldi. Xalqaro seminarda universitet professor-o'qituvchilari, radiologiya va nurlil diagnostika bo'yicha tahsil olayotgan klinik ordinatorlar va magistratura rezidentlari, Samarqand viloyati va shahri tibbiyot muassasalarining shifokorlari faol ishtirok etdilar.

Tadbirni ochilishida barcha ishtirokchilarga kun tartibi va tashrif buyurgan mehmonlar haqida qisqacha ma'lumotlar berildi. Seminarning asosiy qismida Uzlaksiz kasbiy ta'lim Rossiya tibbiyot akademiyasi vakillari — professor Vladimir Mitkov "Jigar ultratovush elastometriyasi", "Jigar ultratovush steatometriyasi" mavzularda, dotsent Mina Mitikova ultratovush diagnostikasiga bag'ishlangan ma'ruza bilan chiqish qildi. Shuningdek, xalqaro seminar davomida professor V.Mitkov tomonidan "Jigar ultratovush elastometriyasi" mavzusida master-klass ham o'tkazildi. Uning davomida "Mindray" kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan UTT apparatida ishtirokchilarga jonli tarzda amaliyotlar namoyish qilindi. Seminarning savol-javob qismida o'rtaga tashlangan bir qator masalalar yuzasidan muhokamalar olib borildi va yuzaga kelgan savollarga atroflicha javoblar berildi. Seminar so'ngida barcha ishtirokchilarga sertifikatlar topshirildi.

20-sentabr kuni universitetga Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining ilm-fan va ta'lim integratsiyasi Boshqarmasi xodimlari tashrif buyurdi.

ILMIY IZLANUVCHILAR BILAN MULOQOT O'TKAZILDI

Tashrif davomida mehmonlar universitetning yangi o'quv binosi va unda yaratilgan shart-sharoitlar, o'quv-laboratoriya xonalari hamda talabalarni o'qitish tizimi bilan yaqindan tanishdilar. Mehmonlar SamDTU tarixi aks etgan muzeyga sayohat uyushtirib, universitet tarixi haqida ma'lumotlar olish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Tashrif doirasida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Ilm-fan va ta'lim integratsiyasi boshqarmasi bosh mutaxassisi N.Miraximova universitet doktorantlari, ilmiy tadqiqotchilari bilan suhbat o'tkazdi. Ochiq muloqotda izlanuvchilarning ilmiy faoliyatni tashkil etish, yuzaga kelayotgan muammolar hamda kamchiliklar o'rganildi. Jumladan ilmiy tadqiqotchilarning chet tilini bilish darajasini baholovchi sertifikatga ega bo'lishlari va boshqa masalalar muhokamadan o'tkazildi. Yig'ilish ishtirokchilari o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olish imkoniyatiga ega bo'ldilar.



Samarqand davlat tibbiyot universiteti yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish hamda jahon ta'lim makonining faol ishtirokchisi bo'lish maqsadida ko'plab xorijiy ta'lim muassasalari va klinikalari bilan yaqindan hamkorlik qilib kelmoqda.

NAGAI TIBBIYOT KLINIKASI BILAN HAMKORLIK MASALALARI MUHOKAMA ETILDI



12-avgust kuni universitetga Yaponiyaning NAGAI tibbiyot klinikasi delegatsiyasining amaliy tashrifi amalga oshirildi. NAGAI klinikasi rahbari Nagai Koji, klinika prezidentlari Shimaoka Erina va Kishimoto Yumihiko hamda hamshira Nagai Kaorulardan iborat delegatsiyani SamDTU Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektori Zafar Aminov va Xalqaro ta'lim fakulteti dekani Sobirjon Mamaradjabovlar kutib oldilar. Uchrashuvda ikki tashkilot haqidagi ma'lumotlar almashilindi, o'zaro hamkorlik masalalari muhokama qilindi. Xususan, NAGAI klinikasi bilan hamkorlikda oliy hamshiralik ishi yo'nalishida kadrlarni tayyorlashni yolg'a qo'yish hamda boshqa istiqbolli rejalarni amalga oshirish bo'yicha kelishib olindi.

Tashrif davomida mehmonlar universitetning yangi o'quv binosidagi shart-sharoitlar bilan tanishib, universitet tarixini o'zida jam etgan muzeyga tashrif buyurdilar. Shuningdek, NAGAI delegatsiyasi tashkil etilgan Simulyatsion markazda bo'lib, talabalarga yaratilgan imkoniyatlar, texnik uskunalar va simulyatsion jihozlar bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Tashrif so'ngida mehmonlarga Universitet ramzi tushirilgan esdalik sovg'alari topshirildi.



DEKAN VA TALABA-YOSHLAR UCHRASHUVI O'TKAZILDI

Joriy yilning sentabr oyida yangi o'quv yili boshlanishi munosabati bilan universitetda fakultet dekanlari va talaba-yoshlar ishtirokida "Dekan va yoshlar" uchrashuvi o'tkazildi.

Uchrashuvlarda prorektor, fakultet dekanlari, dekan o'rinbosarlari, tutor hamda talaba-yoshlar ishtirok etdi.

Talabalar bilan uchrashuv ochiq muloqot tarzida o'tkazilgan bo'lib, 2023-2024 yangi o'quv yili boshlanishi munosabati bilan talabalar-yoshlarni ta'lim olishi uchun universitetda yaratilgan imkoniyat va shart-sharoitlar, oliy ta'lim muassasasidagi o'quv tizimi va jarayonlari, odob-axloq qoidalari, talabalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida yaratilgan ijodiy to'garaklar va sport seksiyalari haqida tushunchalar berildi.

UNIVERSITET XODIMLARI XALQARO ANJUMANDA ISHTIROK ETISHDI

2023-yilning 15-16 sentabr kunlari Toshkent shahrida "Dermatologiya va estetik tibbiyotga sohalararo zamonaviy yondashuv" nomli Xalqaro Ilmiy-amaliy anjumani bo'lib o'tdi.

Dunyo mamlakatlarining ushbu fan sohasida faoliyat yuritayotgan Xalqaro va mahalliy mutaxassislar o'rtasida so'nggi ilmiy izlanishlar yutuqlari, dermatozlarni tashxislash va davolashda yangi yo'nalishlar, kosmetologiyada yangi va dolzarb masalalar, urogenital infeksiyalarning diagnostikasi va terapiyasi, dermatozlarni davolashda dolzarb yo'nalishlar va ularni tashxislash, hamda davolashning zamonaviy, ratsional, samarali usullarini amaliyotda qo'llash bilan bog'liq ilmiy almashinuv va amaliyotni mustahkamlash maqsadida Xalqaro anjuman o'tkazildi.

Butun dunyodan dermatovenerologiya va estetik tibbiyot sohasidagi eng yorqin aql egalarini birlashtirgan holda ushbu tadbir an'anaviy tarzda har yili o'tkazilib kelinmoqda.

Yetakchi dermatovenerologiya simpoziumlaridan biri sifatida e'tirof etilgan "ICDV&C-2023" Anjumani dermatovenerologiya sohasidagi davolash yutuqlari va yangi tendensiyalari almashinuvi uchun chinakam global forum bo'lib xizmat qildi. "ICDV&C-2023"ning har yili yig'ilishida mutaxassislarning dermatovenerologiya va tibbiy kosmetologiya bo'yicha tushunchalarini chuqurlashtirish maqsadida diagnos-



tika hamda davolashning kuchli va samarali usullarini kashf etishga katta e'tibor qaratiladi. Ushbu anjumanda Samarqand davlat tibbiyot universiteti delegatsiyasi tarkibida Teri-tanosil kafedrasini mudiri, PhD. Guzal Klebleyeva, kafedra assistenti Nigina Aminovalar qatnashdi.

Anjuman doirasida ko'plab mavzular muhokama qilindi. Kafedra mudiri G.D.Klebleyeva tomonidan anjumanda "COVID-19 infeksiyasini o'tkazgan bemorlarda dermatologik belgilarning xususiyatlari" mavzusida ma'ruza o'qildi. Xalqaro Anjuman yakunida ishtirokchilarga sertifikatlar topshirildi.

G.D.Klebleyeva,
PhD. Teri-tanosil kafedrasini
mudiri.

SHIFOKOR SO'ZI

SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETIDA "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ANESTEZIOLOG VA REANIMATOLOGLAR VI SYEZDI" XALQARO ANJUMANI BO'LIB O'TDI

2023-yil 22-sentabr kuni Samarqand davlat tibbiyot universitetida "O'zbekiston Respublikasi anesteziolog va reanimatologlarining" VI syezdi o'z ishini boshladi.



Xalqaro anjuman ishida respublikamiz va Fransiya, Germaniya, Rossiya, Qozog'iston, Tojikiston, Xitoy, Ukraina, Isroil, Qirg'iziston, boshqa mamlakatlarning tibbiyot oliy o'quv yurtlari va tibbiyot markazlarining anesteziologiya va reanimatologiya sohasidagi taniqli olimlari va amaliyotchi-mutaxassislari ishtirok etdilar. Taklif etilgan ma'ruzachilar orasida taniqli mutaxassislar, shu jumladan t.f.d., professor Aleksey Ovezov (Moskva, Rossiya), bosh vrach Liu Yatao (Xitoy), t.f.d., prof. Y.Y.Kobelyatskiy (Ukraina), t.f.d., prof. N.P.Shen (Rossiya), t.f.d. I.A.Savin (Rossiya), anesteziolog-reanimatolog Alain Mare Paul Gerard (Fransiya), Zinaida Rabin (Isroil) va boshqalar ishtirok etdilar.

Anjuman yalpi majlisida anesteziologiya, reanimatsiya va intensiv terapiyada yuqori texnologiyali yo'nalishdagi yutuqlar va rivojlanish istiqbollari muhokama qilindi. Samarqand davlat tibbiyot universiteti anesteziologiya, reanimatsiya va shoshilinch tez tibbiy yordam kafedrasini va maktablarining to'plagan tajribasi borasidagi ma'ruzalar tinglandi.

1-oktabr - "Ustoz va murabbiylar kuni"

O'tdi necha yil-u, necha asrlar.
Tug'ildi donishmand, necha ming olim.
Navoiy, Qodiriy, Temur, Boburbar.
Ularga bergan saboq, ustoz, muallim.
Birdek aytadiki, barcha til, millat.
Yoshini farqi yo'q, ulashib ta'lim.
Kelajak ko'zusi, olamga ibrat.
Ilm chinog'isiz, ustoz, muallim.
Hayotni o'xshatib, misli daraxtga.
Siz ildiz bo'lsangiz, tanasi halqim.
Yosh avlod aylanar, barg va mevaga.
Chinondek boqiy bo'ling, ustoz, muallim.
Siz uchun atadim, ikki misra bayt.
Bilmadim sizlarsiz, bo'lar edim kim.
Yurakdan so'zladim, o'ylab uzoq payt.
Xizmatda charchamang, ustoz, muallim.

Rustambek Qudratov,
Pediatriya fakulteti, 423-guruh talabasi



SAMDTU QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LOH QILADI

1-son davolash fakulteti

2-son xirurgik kasalliklar kafedrasini, katta o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;
Ichki kasalliklar propedevikasi kafedrasini, assistent lavozimiga - 1 o'rin.

2-son davolash fakulteti

4-son ichki kasalliklar kafedrasini, dotsent lavozimiga - 1 o'rin;
2-son ichki kasalliklar kafedrasini, katta o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;
1-son akusherlik va ginekologiya kafedrasini, assistent lavozimiga - 1 o'rin;
2-son ichki kasalliklar kafedrasini, assistent lavozimiga - 1 o'rin;
1-son xirurgik kasalliklar, transplantologiya va urologiya kafedrasini, assistent lavozimiga - 1 o'rin.

Pediatrica fakulteti

Nevrologiya kafedrasini, dotsent lavozimiga - 1 o'rin;
Oftalmologiya kafedrasini, dotsent lavozimiga - 1 o'rin;
3-son pediatriya va tibbiy genetika kafedrasini, dotsent lavozimiga - 1 o'rin;
Oftalmologiya kafedrasini, katta o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;
3-son pediatriya va tibbiy genetika kafedrasini, assistent lavozimiga - 1 o'rin;
Travmatologiya va ortopediya kafedrasini, assistent lavozimiga - 1 o'rin.

Tibbiy pedagogika va oliy hamshiralik ishi fakulteti

Umumiy xirurgiya kafedrasini, dotsent lavozimiga - 1 o'rin;
Tillar kafedrasini, assistent lavozimiga - 1 o'rin.

Tibbiy profilaktika, jamoat salomatligi va tibbiy biologiya fakulteti

Fiziologiya kafedrasini, katta o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;
Epidemiologiya kafedrasini, katta o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin.

Stomatologiya fakulteti

Terapevtik stomatologiya kafedrasini, assistent lavozimiga - 1 o'rin.

Diplomdan keyingi ta'lim fakulteti

Xirurgiya, endoskopiya va anesteziologiya-reanimatologiya kafedrasini, kafedra mudiri lavozimiga - 1 o'rin;
Ijtimoiy salomatlik va sog'liqni saqlash boshqaruvi kursi, assistent lavozimiga - 1 o'rin;
Kaminvaziv va laparoskopik xirurgiya kursi, assistent lavozimiga - 1 o'rin.



Ota! Naqadar buyuk zot

**Mehribon ustoz,
o'z kasbining mohir
ustasi, haqiqiy
olim va pedagog
t.f.d. professor
T.D. Dehqonovning
yorqin xotiralarga
bag'ishlanadi**

Ota desam bag'ri dilim yonaverar.
Kunim yonar, oyuu yilim yonaverar.
Mozoriga gullar qo'ysam yonaverar
Tutunlarga to'lib ketgan osmonim bor.

Ota! Naqadar buyuk zot. Har qanday ulug' insonlarni tomirida ota qoni oqadi. Otalarimizni qancha ulug'lasak, mehr bersak, ardoqlasak shuncha kam. Men ham otajonim, xokisorim, o'z kasbini o'ta sevgan, ardoqlagan, umrining oxirigacha o'z kasbiga sodiq qolgan inson - tibbiyot fanlari doktori, professor Toshpo'lat Dehqonovich Dehqonov haqida yozmoqchiman.

Otam 1940-yil 21-mart kuni Jizzax viloyati Forish tumanining uzoq Qorabdo' qishlog'ida, oddiy dehqon oilasida tavallud topganlar. Maktabni a'lo baholarga tamomlab, Qozog'istonning Jettisoy tumanida oddiy kolxozchi bo'lib ishlaganlar. 1961-yil Samarqand davlat tibbiyot oliygohiga o'qishga kirib, 1967-yil a'lo baholarga tugatganlar. 1965-yil yoz oyida (5-bosqichni tugatgan paytlarida) QQASSRda xolera kasalligi tarqalib, tibbiyot oliygohi talabalari yordamga jo'natiladi. Epidemiya davrida fidoyilik bilan ishlab jasorat ko'rsatganlari uchun shuncha talabalar ichida otajonim SSVning "Faxriy yorlig'i" bilan taqdirlanadilar.

Oliyog'ini tamomlab, 1967-yil G'allaorol tumanining Guliston qishlog'idagi QVPga bosh shifokor lavozimiga tayinlanadilar. Ushbu joyda ham vijdonan ishlab, qanchadan qancha bemorlar dardiga malham bo'lganlar. So'ngra Samarqand davlat tibbiyot oliygohining Gistologiya kafedrasiga assistent bo'lib ishga joylashadilar. 1968-yil sentabr oyidan to umrlarining oxirgi kunlarigacha

54 yil mobaynida sadoqat bilan faoliyat yuritadilar. Dastlab assistent, keyin katta o'qituvchi, 1981-yildan boshlab dotsent bo'lib ishlaganlar. 1981-yil 29-iyunda Qrimning Simferopol shahrida nomzodlik dissertatsiyalarini yoqlaganlar. 1990-yilda esa Moskva shahridagi Patris Lumumba nomidagi Xalqlar Do'stligi universitetida doktorlik dissertatsiyalarini yoqlaganlar. 1993-yilda otajonim professorlik unvoni berilgan. Kariyb 20 yil mobaynida Gistologiya kafedrasini mudiri lavozimida faoliyat yuritib, o'nlab shogirdlar tayyorladilar va bu shogirdlarining eng iste'dodlisi hozirda Gistologiya kafedrasini mudiri, t.f.d., professor F.S. Oripov hisoblanadi. U kishi dadamning ishlarini muvaffaqiyatli davom ettirmoqdalar. Otajonim ilmiy ishlari, maqolalari yuzlab mahalliy va chet el jumallarida chop etilib, ko'plab malakali mutaxassislar tomonidan e'tirof etilgan. Otajonim butun umrlari davomida halol yashab, tinim bilmasdan mehnat qilganlar va bizlarni, shogirdlarini ham shunga o'rgatganlar. Yana bir maqtovg'a arzigulik minnatdorchilikni O'zbekiston qahramoni Oliy majlis deputati, t.f.d., Amerika oftalmologlar akademiyasining Rossiya tibbiy texnika fanlari akademiyalarining akademigi Muxammadiyev Raxmon Omonovichning "Ta'qdir tuhfalari" kitobidagi (1,13 bet) so'zlarini aynan o'zini keltiraman. — "Professor Toshpo'lat Dehqonov tom ma'nodagi mening ustozim bo'ladi. Ksenotransplantat yaratishimning gistologik va morfologik isbotlarini tajriba o'tkazayotgan quyonlarimning ko'zlarini minglab mikroskopik preparatlar qilib juda katta zahmatlar cheksayam, menga beg'ubor yordamini ayamagan buyuk olim deb bilaman."

Ustozga bundan ortiq baho berilmasa kerak fikrimcha!

Men shunday insonning farzandi bo'lganligimdan faxrlanaman!

N.T. Dehqonova, SAMDTU Gistologiya, sitologiya va embriologiya kafedrasini katta o'qituvchisi

E'LOH

Kim Anna Grigorevna - Samarqand davlat tibbiyot universiteti ilmiy bo'limida patent muhandisi lavozimida faoliyat yuritmoqda.

Patent bo'yicha mutaxassisning faoliyatiga quyidagilar kiradi: ixtirolarga talabnomalar berish, rasionalizatorlik takliflarini tayyorlash va amalga oshirishda yordam berish, patent ma'lumotlarini qidirishda ishtirok etish va amaliy yordam berish. Patent ma'lumotlarini qidirishni o'tkazishning muhim bosqichi - muammoga kiritilgan va amalga oshirishni talab qiladigan har bir mavzuni rejalashtirish va ishlab chiqishdir.

Qidiruv quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- patent tadqiqotlarini o'tkazish bo'yicha topshiriqlar ishlab chiqish;
- qidiruv muddatini (reglamentini) ishlab chiqish;
- patent ma'lumotlarini qidirish va tanlash;
- tanlangan ma'lumotlarni tizimlashtirish va tahlil qilish;
- natijalarni umumlashtirish va patent tadqiqotlari bo'yicha hisobot tuzish.

Patent-ma'lumot tadqiqotlari bo'yicha hisobot ilmiy-tadqiqot ishlarini ishlab chiqish jarayonida amalga oshiriladi, to'ldirilgan hisobot universitet ilmiy kengashi tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

Qidiruvni yaxshilash uchun barcha kiruvchi adabiyotlar, rus va respublika jurnallari ko'rib chiqiladi, tizimli kartotekaga qayta ishlanadi va alifbo bo'yicha mavzular katalogiga joylashtiriladi, so'ngra elektron shaklda ma'lumot olish uchun kompyuterdan foydalaniladi. Qo'shimcha ma'lumot olish uchun Internet qidiruv tarmog'idan foydalaniladi. Biz har qanday

Internet-brauzerga kiraolamiz (Chrome, Internet Explore va hokazo.)

Ixtirochilik va rasionalizatorlik ishlari yakka tartibda ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor tomonidan tasdiqlanadi. Ixtirolarga talabnomalar va rasionalizatorlik takliflarini tayyorlashda uslubiy yordam ko'rsatiladi. Barcha taqdim etilgan rasionalizatorlik takliflari klinikaning ish joyida amalga oshiriladi va ulardan foydalanish sertifikatini bilan tasdiqlanadi. Ixtiroga talabnoma berish uchun talabnoma beruvchi Patent idorasiga ariza beradi.

Talabnoma beruvchi Patent idorasi bilan patent olish bilan bog'liq barcha ishlarni olib boradi, talabnoma bo'yicha yozishmalarni olib boradi va talabnomani ko'rib chiqish jarayonida boshqa harakatlarni amalga oshiradi. Arizada quyidagilar bo'lishi kerak: ixtiro tavsifi, talablar, referat, agar mavjud bo'lsa chizmalar bilan.

Ixtiro tavsifi yangilik, ixtirochilik bosqichi va sanoatda qo'llanilishini o'z ichiga oladi.

Shakllar da'vo qilingan natijaga erishish uchun zarur bo'lgan ixtironing mohiyatini ifodalaydi.

Annotatsiyada ixtiro haqidagi ma'lumotlarning qisqacha mazmuni keltirilgan.

Grafik materiallar ixtironing mohiyatini chizmalar, diagrammalar, grafikalar, chizmalar.

Patent yangilik va ixtirochilik bosqichiga ega bo'lgan va sanoatda qo'llanilishi mumkin bo'lgan ixtiro uchun beriladi.

Bog'lanish uchun ma'lumotlar:

Telefon +998 93 995-92-18



Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasida 2023-yil 3-oktabr kuni soat 08:00 da Ichki kasalliklar propedevtikasi fanidan Pediatriya fakultetining 306-309-guruh talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Yurak ishemik kasalligi, yurak sanchig'i, miokard infarkti, kardiokleroz simptomatologiyasi. Yurak ishemik kasalligi haqida tushuncha. Etiologiya. Patogenezi, stenokardiya klassifikatsiyasi simptomatologiyasi. EKG diagnostika. Stenokardiya xurujini to'xtatish. Miokard infarkti. Etiologiyasi. Patogenezi. Simptomatologiyasi. EKG – diagnostikasi (bosqichlari va lokalizatsiyasi). Shoshilinch yordam".

Ma'ruzachi va Kafedra mudiri: T.f.n., dotsent S.Yarmuxamedova.

Manzil: Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasida ma'ruzalar zali.

Taklif qilinganlar: Kafedra assistentlari, bo'lim vrachlari, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.

Ftiziatriya va pulmonologiya kafedrasida 2023-yil 4-oktabr kuni soat 11:00 da Ftiziatriya fanidan Xalqaro ta'lim fakulteti 417-420-guruh talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Methods and principles for detecting tuberculosis". ("Tuberkulyozni tashxislashning usullari va tamoyillari")

Ma'ruzachi va Kafedra mudiri: PhD., dotsent A.Kim.

Manzil: Ftiziatriya va pulmonologiyakafedrasida ma'ruzalar zali.

Taklif qilinganlar: Klinik ordinatorlar, o'quv bo'limi, kafedra o'qituvchilari va barcha qiziquvchilar.

Travmatologiya va Ortopediya kafedrasida 2023-yil 5-oktabr kuni soat 11:00 da Travmatologiya va ortopediya fanidan 1-son Davolash ishi fakultetining 401-410-guruh talabalari va Tibbiy pedagogika fakultetining 401-405 guruh talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Tirsak bo'g'im shikastlanishlari".

Ma'ruzachi: T.f.d., professor P.Urinbayev.

Manzil: Travmatologiya va ortopediya kafedrasida ma'ruzalar zali.

Taklif qilinganlar: Magistr va klinik ordinatorlar, o'quv bo'limi, kafedra o'qituvchilari va barcha qiziquvchilar.

Kafedra mudiri: PhD., O.Mamatkulov.

Terapevtik stomatologiya kafedrasida 2023-yil 6-oktabr kuni soat 8:00 da Og'iz bo'shlig'i shilliq parda kasalliklari fanidan Stomatologiya fakultetining 511-515- guruh talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Sindromal kasalliklarda Osler, Itsenko-Kushinga parodont patologiyalarini tekshirish va klinik-laboratoriya belgilarini interpretatsiya qilish".

Ma'ruzachi: Assistant N.T.Shukurova.

Manzil: Terapevtik stomatologiya kafedrasida ma'ruzalar zali.

Taklif qilinganlar: Magistr va klinik ordinatorlar, o'quv bo'limi, kafedra o'qituvchilari va barcha qiziquvchilar.

Kafedra mudiri: T.f.d., professor T.E.Zoyirov.

Tibbiy kimyo kafedrasida 2023-yil 9-oktabr kuni soat 09:30 da Tibbiykimyo fanidan 1-son Davolash ishi fakultetining 111-115-guruh talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Geterofunksional birikmalar, ularni tibbiyotda ahamiyati".

Ma'ruzachi va Kafedra mudiri: T.f.d., professor D.Xolmurodova.

Manzil: Tibbiy kimyo kafedrasida №1 ma'ruza zali.

Taklif qilinganlar: Kafedra o'qituvchilari va barcha qiziquvchilar.

Teri-tanosil kasalliklari kafedrasida 2023-yil 9-oktabr kuni soat 11:00 da Dermatovenerologiya fanidan 2-son Davolash ishi fakultetining 424-427- guruh talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Dermatitlar. Ekzema. Toksikodermiyalar. Eshakyemi".

Ma'ruzachi: T.f.n., dotsent D.Abdullayev.

Manzil: Teri-tanosil kasalliklari kafedrasida ma'ruzalar zali.

Taklif qilinganlar: Magistr va klinik ordinatorlar, o'quv bo'limi, kafedra o'qituvchilari va barcha qiziquvchilar.

Kafedra mudiri: Ph.D. G.Klebleyeva.

Ichki kasalliklar kafedrasida 2023-yil 10-oktabr kuni soat 10:05 da Ichki kasalliklar fanidan Pediatriya fakultetining 5-bosqich talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Rheumatoid arthritis. Diagnosis and treatment". ("Revmatoid artrit kasalligi. Tashxislash va davolash usullari").

Ma'ruzachi va Kafedra mudiri: PhD., dotsent Z.Babamuradova.

Manzil: Pediatriya fakulteti Ichki kasalliklar kafedrasida ma'ruzalar zali.

Taklif qilinganlar: Kafedra assistentlari, o'quv bo'limi, Samarqand shahar TB Markaziy shifoxonasi 2-Terapiya bo'limi shifokorlari va barcha qiziquvchilar.

2-Otorinolaringologiya kafedrasida 2023-yil 12-oktabr kuni soat 11:00 da Otorinolaringologiya fanidan 2-son Davolash ishi fakultetining 526-530-guruh talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Labirintopatiyalar diagnostikasida va davolashda zamonaviy yondashish".

Ma'ruzachi va Kafedra mudiri: T.f.d., professor M.Nasretidinova.

Manzil: 2-Otorinolaringologiya kafedrasida ma'ruzalar zali.

Taklif qilinganlar: Magistr va klinik ordinatorlar, o'quv bo'limi, kafedra o'qituvchilari va barcha qiziquvchilar.

1-Pediatriya va neonatologiya kafedrasida 2023-yil 12-oktabr kuni soat 11:10 da Neonatologiya fanidan Pediatriya fakultetining 506-510- guruh talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Perinatologiyaning dolzarb muammolari".

Ma'ruzachi: PhD., dotsent v.b. X.Sirojiddinova.

Manzil: 1-Pediatriya va neonatologiya kafedrasida ma'ruzalar zali.

Taklif qilinganlar: Magistr va klinik ordinatorlar, o'quv bo'limi, kafedra o'qituvchilari va barcha qiziquvchilar.

Kafedra mudiri: T.f.d., professor N.Shavazi.

3-son Akusherlik va ginekologiya kafedrasida 2023-yil 13-oktabr kuni soat 11:00 da Akusherlik va ginekologiya fanidan 2-son Davolash ishi fakultetining 616-619- guruh talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Rezus konflikt v akusherstve". ("Akusherlikda rezus immunizatsiya")

Ma'ruzachi va Kafedra mudiri: PhD., dotsent N.Shavazi.

Manzil: 3-son Akusherlik va ginekologiya kafedrasida ma'ruzalar zali.

Taklif qilinganlar: Magistr va klinik ordinatorlar, o'quv bo'limi, kafedra o'qituvchilari va barcha qiziquvchilar.

Bolalar kasalliklari propedevtikasi kafedrasida 2023-yil 13-oktabr kuni soat 13:10 da Bolalar kasalliklari propedevtikasi fanidan Pediatriya fakultetining 316-320 guruh talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Bolalarda siydik tizimini o'rganishning anatomik va fiziologik xususiyatlari, tekshirish usullari. Patologik o'zgarishlarning asosiy belgilari va sindiromlari, kasalliklar semiotikasi".

Ma'ruzachi: T.f.n., dotsent Sh.Ibatova. **Manzil:** Bolalar kasalliklari propedevtikasikafedrasida ma'ruzalar zali.

Taklif qilinganlar: Magistr va klinik ordinatorlar, o'quv bo'limi, kafedra o'qituvchilari va barcha qiziquvchilar.

Kafedra mudiri: T.f.d., dotsent D.Rabbimova.

Umumiy gigiena va ekologiya kafedrasida 2023-yil 16-oktabr kuni soat 11:10 da Gigiyena. Tibbiy ekologiya fanidan Pediatriya fakultetining 316-320 guruh talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Davolash-profilaktika muassasalari

gigiyenasining umumiy asoslari".

Ma'ruzachi: Katta o'qituvchi Z.Naimova.

Manzil: Umumiy gigiyena va ekologiya kafedrasida ma'ruzalar zali.

Taklif qilinganlar: O'quv bo'limi, kafedra o'qituvchilari va barcha qiziquvchilar.

Kafedra mudiri: T.f.d., dotsent B.To'xtarov.

Klinik farmakologiyakafedrasida 2023-yil 17-oktabr kuni soat 11:00 da Klinik farmakologiya fanidan 2-son Davolash ishi fakultetining 501-505 guruh talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Klinik farmakologiya fani, maqsadi va vazifalari. Farmakodinamika va Farmakokinetika".

Ma'ruzachi: Assistant O.Siddiqov.

Manzil: Klinik farmakologiya kafedrasida ma'ruzalar zali.

Taklif qilinganlar: O'quv bo'limi, kafedra o'qituvchilari va barcha qiziquvchilar.

Kafedra mudiri: I.Abdurahmonov.

2-Ichki kasalliklar va kardiologiya kafedrasida 2023-yil 20-oktabr kuni soat 11:00 da Ichki kasalliklar fanidan 1-son Davolash ishi fakultetining 606-610 guruh talabalari va Tibbiy pedagogika fakultetining 601-604-guruh talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Yurak sohasidagi shovqinlar, yurak nuqsonlari etiopatogenezi, klassifikatsiyasi, klinikasi, tasnifi, diagnostik mezonlari, differensial diagnostikasi, davolash usullari va profilaktikasi".

Ma'ruzachi va Kafedra mudiri: T.f.d., professor E.Tashkenbayeva.

Manzil: 2-Ichki kasalliklar va kardiologiya kafedrasida ma'ruzalar zali.

Taklif qilinganlar: Magistr va klinik ordinatorlar, o'quv bo'limi, kafedra o'qituvchilari va barcha qiziquvchilar.

Travmatologiya va Ortopediya kafedrasida 2023-yil 27-oktabr kuni soat 11:00 da Travmatologiya va ortopediya fanidan 1-son Davolash ishi fakultetining 411-415 guruh talabalari va Tibbiy pedagogika fakultetining 406-410 guruh talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Chanoq-son bo'g'im tug'ma chiqishini tekshirish, klinikasi va davolash usullari".

Ma'ruzachi: T.f.n., dotsent A.Axtamov.

Manzil: Travmatologiya va ortopediya kafedrasida ma'ruzalar zali.

Taklif qilinganlar: Magistr va klinik ordinatorlar, o'quv bo'limi, kafedra o'qituvchilari va barcha qiziquvchilar.

Kafedra mudiri: PhD., O.Mamatkulov.

1-son Akusherlik va ginekologiya kafedrasida 2023-yil 30-oktabr kuni soat 11:10 da Akusherlik va ginekologiya fanidan Tibbiy pedagogika fakultetining 508-510 guruh talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Bachadondan anomol qon ketishlar".

Ma'ruzachi: T.f.d., professor N.Zakirova.

Manzil: 1-son Akusherlik va ginekologiyakafedrasida ma'ruzalar zali.

Taklif qilinganlar: Magistr va klinik ordinatorlar, o'quv bo'limi, kafedra o'qituvchilari va barcha qiziquvchilar.

Kafedra mudiri: T.f.n., dotsent D.Xudoyarova.

Teri-tanosil kasalliklari kafedrasida 2023-yil 31-oktabr kuni soat 11:00 da Dermatovenerologiya fanidan Xalqaro ta'lim fakultetining 425-428 guruh talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Pyoderma, tuberculosis and leishmaniasis— Etiology, Clinical features, Diagnosis and Treatment." ("Pyoderma, teri sili va teri leishmaniozi — etiologiyasi, klinik belgilari, diagnostikasi va davolashi")

Ma'ruzachi: Assistant X.Abdullayev.

Manzil: Teri-tanosil kasalliklari kafedrasida ma'ruzalar zali.

Taklif qilinganlar: Magistr va klinik ordinatorlar, o'quv bo'limi, kafedra o'qituvchilari va barcha qiziquvchilar.

Kafedra mudiri: PhD. G.Klebleyeva.

Tahririyat raisi:

J.A. RIZAYEV

Bosh muharrir:

E.S. TANGIROV

Tahrir hay'ati:

G'.U.Lutfullayev,

S.A.Karabayev,

A.A.Axmedov, J.F.Kadirov,

B.E.To'xtarov, F.A.Daminov,

S.E.Mamaradjabov,

N.M. Shavazi, O.A.Xamidov

SHIFOKOR SO'ZI

Nashr uchun mas'ul:

O. Muratov

Operator va sahifalovchi:

A. Xolboyev

Fotomuxbir:

O.Axmedov



Gazeta Samarqand viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 18.01.2007 y. 09-33 raqami bilan ro'yxatga olingan.
INDEKS: 5539

MANZIL: Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi 18-uy.
Tel: (99866) 233-09-76 Faks: (99866) 233-71-75
e-mail: shifokor@samti.uz, sammi@sammi.uz

Gazeta SamDTU bosmaxonasida, ofset usulida chop etiladi.
Nashrga ruxsat berildi: 2023 yil, 27 sentabr. Adadi 200 nusxa. Buyurtma: 99

Gazeta har oyda bir marta to'liq rangli shaklda chop etiladi va bepul tarqatiladi